

Nazir Safarov

O'zbek adabiyotida publitsist, ocherknavis va dramaturg sifatida tanilgan Nazir Safarov 1905 yili Jizzax shahrida temirchi oilasida tug'ildi. U sovet maktablarida o'qidi, birinchi ziyolilar qatori uzoq qishloqlarga borib dars berdi. Komsomol safiga kirdi. Jizzaxda tashkil qilingan «Sanoi nafisa» to'garagi bo'lg'usi dramaturgda teatr san'atiga katta muhabbat uyg'otdi.

Nazir Safarov o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida muhim rol o'ynagan «Tarix tilga kirdi» (1931), «Uyg'onish» (1939), «Sharq tongi» (1954) kabi sahna asarlarini yaratdi. «Uyg'onish»da 1916 yil qo'zg'oloni, «Sharq tongi»da Oktyabr inqilobi, «Tarix tilga kirdi» (Ziyo Said bilan birgalikda yozgan)da milliy nizolar, «Kimga to'y, kimga aza»sida ishchilar sinfining yangilik uchun jangu jadali asosiy mavzudir.

Dramaturgiya sohasidagi katta xizmatlari uchun N. Safarovga (1955) O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berildi. Ulug' Vatanurushi davrida Nazir Safarov frontning oldingi jabhalarida bo'lib, jangchilarning qahramonligini, dushmanning yovuzligini hikoya qiluvchi «O'q o'tmas botir», «Vodillik qahramon», «Komissar Qoraboyev», «Sevgi», «So'nggi nafasgacha», «O'zbek farzandlari», «Qahramonning tug'ilishi» kabi qator ocherklar yozdi.

Uninghayotdagi yangiliklar, yaxshi tashabbuslar targ'ibotchisi sifatida paxtachilik, mexanizatsiya sohasida xotin-qizlarning rolini aks ettiruvchi asarlari ham diqqatga sazovor. Xotin-qizlar orasidan yetishib chiqqan birinchi zangori kema kapitani Tursunoy Oxunova, uningtashabbusi, el oldidagi obro'-e'tiboridan bahs etuvchi «Uzoqni ko'zlagan ayol» qissasi shular jumlasidandir.

Yozuvchining 1954-1957 yillarda yaratgan zamonaviy mavzudagi katta asarlari «Hayot maktabi» va «Elmurod» (hamkorlikda) p'esalaridir. Nazir Safarov bir qancha hikoyalar ham yozgan. «Oltinoy», «Olma olmadan uzoqqa tushmaydi», «Ahmadali o'z baxtini qanday topdi» hikoyalari g'oyaviy-badiiy jihatdan puxtaligi bilan diqqatga sazovordir.

Uning 60-yillarda yaratgan «Bir tomchi qon» (1967), «Ko'rgan kechirganlarim» (1968) nomli qissalari, «Navro'z» (1973) romani adabiyotimiz yutuqlaryani ko'rsatuvchi asarlar qatoridan joy oldi. «Ko'rgan kechirganlarim» asari uchun muallifga (1968) Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

Adib nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabani 30 yilligiga bag'ishlab, o'zbek jangchilarining qahramonliklaridan hikoya qiluvchi «Lukash botir» (Ya. Hudoyqulov bilan hamkorlikda) dramasi yaratdi.

U 1975 yilda 70 yoshga to'lishi munosabati bilan O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni va 80 yoshi bahonasida Xalqlar do'stligi ordeni olishga muyassar bo'ldi. Ko'p o'tmay, 1985 yilda vafot etdi.